

**CHET TILLARNI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR: INNOVATSION  
TEXNIKA, ZAMONAVIY USKUNALAR, ULARNING AFZALLIKLARI CHET  
TILLARINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING QULAYLIKLARI  
VA UNGA BO'LGAN EHTIYOJLAR.**

**Husanova Buvhadicha Alishet qizi**

*Jizzax Davlat Pedagogika universiteti talabasi*

**Bo'riboeva Aziza Sindor qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu qo'llanma Chet tillarini o'qitishda axborot texnologiyalarning qulayliklari va unga bo'lgan ehtiyojlarni (ingliz tili misolida) til o'rganishda texnologiyalarning ahamiyati, texnologiyaga bo'lgan ehtiyoj, innovatsion usullarda maktab, oliy ta'limlarda yangicha yondashuv va ta'lim sohasini zamonbob tarzida olib borish hamda mazkur metodlarni qo'llash borasida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *Tafakkur-verbal, interferensiya, transpozitsiya, lingafon, innovatsion yondashuv.*

**Kirish:** O'zbekiston Respublikasida 1991-yil mustaqillikka erishgandan so'ng davlatni rivojlantirish bo'yicha turli yondashuvlar hamda strategik yo'nalishlar amalga oshirildi. Iqtisodiyot jihatdan rivojlanishga qaramasdan ta'lim tizimida ham o'zgarishlar kiritildi. Ta'lim tizimida chet tillariga e'tibor yanada oshdi. Bugungi kunga kelib chet tillarini o'rganishda rivojlanish tadbiri qilinadi, ya'ni axborot texnologiyaga bo'lgan ehtiyoj yanada oshdi. 2019-yil Covid-19 pandemiyasi oqibatida barcha ta'lim tizimi butunlay online tizimiga o'tishga majbur bo'lishdi. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj yanada oshdi. Chet tillarini o'qitishda texnologiyalarning ustuvorligi o'quvchiga berilayotgan ta'lim qulayligidir. Shuningdek, chet tilliga (ingliz tili misolida) kerakli bo'lgan listening, writing, reading, speaking kabi yo'nalishlarda internet orqali turli listening mashg'ulotlarini, reading uchun maqolalar, writingga mos strukturalar mavjud. Texnologiyaning qulayliklari bu bilan cheklanib qolmaydi. Zamon rivojlanib borar ekan texnikaga bo'lgan ehtiyoj yanada oshib bormoqda. Sharqiy mamlakatlar ta'lim bo'yicha IT (innovatsion texnologiya) olib kirgan. Innovatsion texnologiyalarning qulayligi shundaki, bunga misol qilib Activboard (aktivdoska) proektor, shaxsiy notebook, smart TV kabi texnologiya bilan o'tilgan darslar o'z samarasini beradi va sifati yanada oshadi.



**Adabiyotlar tahlili va metodlar:** Chet tillarini o'rganishda axborot texnologiyalar bilan yondashuv ancha samarali.

-Kompyuterlardan foydalanib videorolik, namoyishlar, kino va multfilmlar qo'yib berish va chet tillarida foydali o'yinlar dars samarasini yanada oshirishga sabab bo'la oladi.

O'sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama ta'minlash va chet tillarini o'qitish borasida texnologiyaga ya'ni kompyuter jihozlari bilan ta'minlash, lingafon xonalar bilan ta'minlash borasida 2010-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar" to'g'risida qaror bu borada muhim omil bo'lib kelmoqda .Davrimizning jadal rivojlanishi axborot kommunikatsiya texnologiyalarning uning imkoniyatlaridan foydalanib yangicha innovatsion yondashuv olib borish hamda XXI asr axborot texnologiya asri hisoblanib har bir o'quvchi bu kabi imkoniyatlardan foydalana olishi uni mukammal darajada o'rgana olish imkoniyatlari mavjud. Ammo, hozirgi kungacha mamlakatimizning ayrim chekka qishloqlarida bu kabi texnik ta'minot yetishmovchiligi mavjud. Axborot texnologiyalarni o'rganishimizda uni bilish va o'rganishda chet tillarga bog'lab o'rganishda tafakkur-verbal ya'ni fikrlash so'z bilan chambarchas bog'liq, so'z — tushuncha kabi fikrlash, ongli ravishda bog'lash lozim.


**Muhokama va natijalar:** Chet tillarini o'rganish azaldan mavjud emas. Tarixga nazar tashlar ekanmiz; chet tillarini (ingliz, rus, ispan, fransuz, nemis) tillarini o'rganish mustaqillik yillaridan so'ng unga talab kuchaya boshlagan. Hozirgi kunda chet tiliga mamlakatimizda ahamiyat juda kuchli respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, urdu, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilmoqda. Ular ta'lim muassasalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. chet tili muallimi axborot texnologiyalarini bilishi va uning metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchining to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi

Chet tilini o'rganishda o'zgacha metodlar orqali o'quvchi, talabalarga innovatsion yo'nalish orqali turli o'yin va saytdan foydalanib aqliy intellektni rivojlantirish metodlarni qo'llash dars sifati va o'zgacha yondashuvlar o'quvchini darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Samara beruvchi o'yinlar:

"Squiz question " ya'ni bu o'yin ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tilida olib borilib turli usulda savolarga javob beriladi.





“Sayt orqali o‘ynaladigan o‘yin” bu o‘yinning asosiy maqsadi xotirani rivojlantirish o‘yini, bo‘lib ingliz tilida turli so‘zlarni eslab qolgan holatda javob beriladi va qayta o‘ynalganda uni ko‘proq eslab qolishdir.

Bu o‘yinlar ijtimoiy tarmoq orqali o‘ynaladi. Hozirgi kunda barchaga internet so‘zini aytganda, uning mohiyati va qanday ishlash jarayoni xayoldan o‘tadi.

**Xulosa:** Demak, o‘quvchilarning til tajribasi chet til o‘rganishga g‘ov bo‘lishi (salbiy ta‘sir — interferensiya) yoki yordam berishi (ijobiy ta‘sir — transpozitsiya) kuzatiladi. Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda axborot texnologiyalar chet tillarini ahamiyati transpozitsiya ya‘ni ijobiy taraflari juda ko‘p, faqat internetdan to‘g‘ri foydalanish va undan dars samarasini oshirishda zaruriyat tug‘iladi. Interferensiya ya‘ni salbiy jihatini olib qaraydigan bo‘lsak, ustozlar o‘quvchilarga qaraganda, innovatsion texnologiyani ulardan yaxshiroq bilish lozim. Sababi shundaki, o‘quvchilarga to‘g‘ri yo‘nalishda ta‘lim berish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jamol Jalalov “Chet tillarni o‘qitish metodikasi nashriyot-matbaa uyi Toshkent 2012.

2. Bekmurotova U.B. “Ingliz tilini o‘qitishda Innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida refarat. 2012.

3. O. Hoshimov, I. Yoqubov. “INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASI” sharq nashriyoti 2003.

4. Xodjiyev.M, Qahharov.M Chet tillarni o‘qitish metodikasi. Fan va texnologiya 2013.

